

Jahon kimyo sanoatida rekarbonizatsiya bozori 2035-yilga kelib 5 barobarga o'sishi mumkin

// 29.06.2026

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoatida-rekarbonizatsiya-bozori-2035-yilga-ke>
|



2025-yilda jahon kimyo sanoatida rekarbonizatsiya texnologiyalari va uskunalari bozori hajmi 9,2 mlrd AQSh dollariga yetdi.

Precedence Research agentligi prognoziga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2026-yilda 10,9 mlrd dollarga, 2035-yilga kelib esa 50 mlrd dollargacha oshadi. Bu davrda bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 18,6 foizni tashkil etadi.

Bozorning o'sishi iqlim me'yorlarining tobora qat'iylashishi hamda barqaror, atmosferaga kam chiqindi chiqaruvchi kimyo ishlab chiqarishiga bo'lgan intilish natijasida uglerodni ushlab qolish va undan foydalanish texnologiyalariga talabning ortishi bilan izohlanmoqda. 2025-yilda mazkur bozorda Yevropa 35 foiz ulush bilan yetakchilik qildi. Prognozlarga ko'ra, tahlil davrida eng yuqori o'sish sur'ati Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kuzatiladi va u o'rtacha yillik 21,5 foizni tashkil etadi.

Tadqiqotga ko'ra, atmosfera havosidan karbonat angidrid (CO₂)ni to'g'ridan-to'g'ri ushlab qolish (DAC — Direct Air Capture) segmenti eng tez sur'atlarda rivojlanadi.

Ushbu yo'nalishning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 24 foizni tashkil etishi kutilmoqda.